

XIX ASR OXIRI XX ASR BOSHLARIDA SAMARQANDDA MAORIF ISHLARI

Usmonov Salohiddin

*Samarqand davlat universititining
Urgut filialining Gumanitar fanlar
kafedrasi o'qituvchisi*

Annotatsiya - XIX asr oxiri XX asr boshlarida Samarqandda 1887-1910 yialarda madrasalar va ularda tahsil oluvchi talabalar soni ortib borgan bo'lsa, 1907 yilda esa madrasalar soni bir oz qisqardi, Hukumat tomonidan milliy maorifni rivojlantirilishiga yo'l qo'ymaslikka qarshi doimiy ravishda kurash olib borildi. Hatto mustamlaka ma'muriyati va ziyolilari orasida agar maktab, madrasalar faoliyati rivojlantirilsa, "G'aflatda yotgan musulmonlar uyg'onib nonimiz yarimta bo'ladi",- degan mulohazalar ham tarqalgan edi.

Kalit so'zlar: Madrasa, maorif, Samarqand, o'qituvchi, Turkiston, hukumat, Diniy maktablar, Mustamlaka, ziyoliylar, milliy ma'orif.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida Samarqand viloyatida 1887 yilda 1489 talabasi bo'lgan 74 madrasa, 1891 yilda 2243 talabasi bo'lgan 101 madrasa, 1907 yilda 4873 talabasi bo'lgan 90 madrasa, 1910 yilda 1784 talabaga ega bo'lgan 97 ta madrasa faoliyat yuritgan⁶. Samarqandda 1887-1910 yialarda madrasalar va ularda tahsil oluvchi talabalar soni ortib borgan bo'lsa, 1907 yilda esa madrasalar soni bir oz qisqardi, lekin ulardagi talabalar soni

ortdi. Hukumat tomonidan milliy maorifni rivojlantirilishiga yo'l qo'ymaslikka qarshi doimiy ravishda kurash olib borildi. Hatto mustamlaka ma'muriyati va ziyolilari orasida agar maktab, madrasalar faoliyati rivojlantirilsa, "G'aflatda yotgan musulmonlar uyg'onib nonimiz yarimta

bo'ladi",-degan mulohazalar ham tarqalgan edi. Mustamlaka ma'muriyatining har qanday cheklashlariga qaramay, diniy maktablar o'z faoliyatini davom ettirib, ularning soni yildan-yilga asta-sekinlik bilan ortib bordi. Bu haqda Turkiston o'lkasi o'quv yurtlari bosh inspektori F.M.Kerenskiy diniy maktablarning sonini ortib borishi haqida quyidagicha fikrni aytgan edi: "1890 yil oxirlaridan boshlab bir qancha musulmon maktablari ochilib, ishga tushirildi"².

XIX asrning 90-yillarida madrasa, maktablar inspektori lavozimida ishlagan Nalivkin asosan Turkistondagi madrasalar faoliyatini o'rgandi. Uch o'quv yilida (1890-1893) u o'lkaning viloyatlaridagi madrasalar vaqflarini ro'yxatga oldi. Uning to'plagan ma'lumotlariga ko'ra, 1892 yilda Turkistonning uch: Sirdaryo, Farg'ona,

Samarqand viloyatlarida 214 ta madrasa bo‘lib, ularning 155 tasi shaharlarda, 59 tasi esa uezdlarda joylashgan edi³.

**Turkistonda diniy maktablar, muallimlar va o‘quvchilar sonining ushishi
(1894-1911 yillar)**

Yillar	1894	1905	1911
Diniy maktablar soni	6445	6938	7070
Muallimlar soni	6843	6581	7143
O‘quvchilar soni	90983	85107	98469

Diniy maktablar bilan bir qatorda o‘lkaning qishloq va shaharlarida rus-tuzem maktablari, Toshkentda o‘qituvchilar seminariyasi ham faoliyat olib bordi. Rus maktablarida ruslar bilan birga mahalliy aholi farzandlari ham tahsil olgan. Masalan, 1896 yilda Toshkentdagi erkak

bolalar gimnaziyalarida o‘quvchi 327 boladan 10 tasi, ya’ni 3 foizi tubjoy millatlarining bolasi edi, qizlar gimnaziyalarida o‘quvchi 377 qizdan 8 tasi, ya’ni 2 foizi mahalliy xalq vakillari qizlaridan edi. 1898 yilda maxsus komissiya diniy maktablar haqida yangi “Qoida” va

“Nizom” tuzdi. “Nizom”ning 5-moddasiga binoan, Turkistondagi diniy maktablar viloyat va uezd ma’muriyati ixtiyoriga o‘tkazildi. Turkiston xalq bilim yurtlari direktori, maorif sohasida uzoq yillar rahbarlik lavozimida faoliyat yuritgan S.M.Grameniskiyning ta’kidlab o‘tishicha, 1899 yilda Turkistonning uch viloyatida (Sirdaryo, Farg‘ona va Samarqandda) 4632 ta diniy maktab bo‘lib, unda 44773 ta o‘quvchi o‘qigan. 1900 yilda esa mazkur viloyatlarda 5418 ta maktab bo‘lib, ularda 57159 ta o‘quvchi o‘qigan.

S.M.Grameniskiy o‘lkadagi maktab, madrasalarni mahalliy aholi hayotida katta ahamiyatga ega ekanligi hamda ular faoliyatiga nisbatan olib borilayotgan aralashmaslik siyosatining o‘zgartirilishini xavfli masala deb hisoblagan, chunki o‘sha davrlarda ham diniy maktablar soni juda ko‘p bo‘lgan. U o‘z fikrida yana davom etib: “Musulmon maktablarining soni juda katta ekanligi faqat Farg‘ona, Sirdaryo, Samarqand viloyatlarining o‘zida 5572 ta musulmon maktabi va 285 ta madrasa borligini hisobga olib, ta’lim idorasi o‘z zimmasiga bu nazoratni va mazkur nazoratni o‘rnatish uchun kerak bo‘ladigan choralarni qabul qila olmaydi” deb hisoblaydi.

1910 yil Sirdaryo viloyatida 804 maktab, Farg‘onada 2446, Samarqandda 2753 jami 6003 maktab faoliyat ko‘rsatdi⁵. Imperiya amaldorlarining maktablar faoliyatini

har qanday cheklashlariga qaramay, ularning soni o‘shida davom etdi. Xususan, 1910-1911 o‘quv yilidagi qaydnoma ma’lumotlariga ko‘ra, o‘lkada 7571 musulmon maktabi bo‘lib, ularda 103037 ta o‘quvchilar bo‘lgan. 1913 yilga kelib esa ularning soni 100 taga ortdi, lekin o‘quvchilar soni 20000 ga kamaydi. O‘quvchilarning kamayib borishiga sabab sifatida o‘sha paytlarda faoliyat ko‘rsatgan rus-tuzem maktablari sonining o‘sib borishini ham keltirish mumkin, chunki maktablarda tahsil oluvchi o‘quvchilar majburlov yo‘llari bilan rus-tuzem

maktablariga o‘tkazilgan. Buning natijasida esa rus-tuzem maktablari soni sezilarli darajada ortgan. Rus ma’murlari fikricha, faqatgina shunday maktablarga mahalliy aholining ruslashib ketishiga yordam berishi mumkin.

1912 yil o‘lkada 5906 ta diniy maktablar faoliyat ko‘rsatgan. Jumladan, Sirdaryoda 949 ta, Samarqandda 2030 ta, Farg‘onada 2360 ta, Kaspiyortida 492 ta, Yettisuvda 75 ta diniy maktablar mavjud bo‘lgan.

Turkistonda diniy maktablar soni (1916 yil)

	Viloyatlar	Maktablar	Madrasalar
	Sirdaryo	1158	31
	Farg‘ona	2460	105
	Samarqand	3210	196
	Kaspiyorti	271	83
	Yettisuv	2	34
	Jami	7101	449

1923 yil 1 sentyabrda Turkiston ASSR da islox kilingan eski maktablar soni¹

Nomi	Jami ro‘yxatga olingan maktablar	Kayta tashkil kilingan maktablar	O‘quvchilar soni	Amalda o‘qiydiganlar soni
Sirdaryo viloyatida	112	6	550	550
Samarkand viloyatida	45	13	810	665
Farg‘ona viloyatida	57	10	570	460
Jami	224	29	1930	1675

Sirdaryo, Farg‘ona va Samarqand viloyatlari bo‘yicha statistik ma’lumotlarga qaraganda, 1917 yilda 1500 ga yaqin maktab va qorixonalar mavjud bo‘lib, ularning katta qismi, ya’ni 80-90 foizga yaqini vaqflar mablag‘i hisobidan kun kechirgan.

Toshkent, Farg‘ona va Samarqand hududlaridagi mahalliy diniy maktab, madrasa, qorixonalar vaqflar mablag‘i hisobidan faoliyat olib borgan emaslar, ammo bu bilan O‘zbekistonda eski usul (diniy) maktablarni tugatish ishi oxiriga yetdi, degan xulosaga kelib bo‘lmaydi. O‘z-o‘zidan

ravshanki, barcha shahar, qishloqlardagi deyarli hamma mahallalardagi masjidlarda, shuningdek, din xizmatchilari, mulla, imomlarning uylarida maktablar faoliyati tashkil etilgan bo‘lib, ulardagi o‘quvchilarning aksariyati uylangan o‘smirlar bo‘lgan. Bu maktablar, xalq ta‘limi nozirlari nazoratidan imkon qadar yashirincha faoliyat ko‘rsatgan. 1924 yilda o‘tkazilgan milliy-hududiy davlat chegaralanishi natijasida O‘rta Osiyoda O‘zbekiston va Turkmaniston SSR, O‘zbekiston SSR tarkibida Tojikiston Avtonom Sovet Respublikasi tuzildi. O‘zbekiston SSR tarkibiga Turkiston ASSRning Sirdaryo, Farg‘ona, Samarqand

viloyatlari, shuningdek, sobiq Buxoroning markaziy va g‘arbiy qismlari ham kiritilgan.

O‘zbekiston SSRdagi eski usul maktablari soni (1925-1926 yy)

Viloyatlar	Maktablar soni
Toshkent viloyati	5
Farg‘ona	157
Samarqand	94
Zarafshon	185
Xorazm	876
Qashqadaryo	119
Surxondaryo	149
Jami	1585

O‘zbekiston KP (b) MK ning 1927 yil 14 iyunda Samarqand shahrida bo‘lib o‘tgan VI Plenumi musulmon ruhoniylari va maktablari haqidagi masalani muhokama qiladi. Plenumda O‘z KP MKning kotibi A. Ikromov “Ruhoniylar va maktab to‘g‘risida” ma‘ruza qiladi. Ma‘ruzada “1919-1920 yillarda mahalliy aholidan hech kim o‘z farzandlarini sovet maktablariga bermagan”² ligi alohida eslatib o‘tiladi. 1927 yil 22 avgustdagi Samarqandda O‘z SSR Maorif xalq komissarligi hay‘atining yig‘ilishida Poroshin, Inoyatov, Qodirov,

Moiseenko, Pexovich, Kalistratov, Boykolar qatnashgan³. “Yagona mehnat maktabining birinchi Nizomi” loyihasi tasdiqlandi. Nizomda xususiy maktablarning mavjud bo‘lishiga yo‘l qo‘yilmasligi ham belgilab qo‘yiladi. Xususiy maktablarni ochishga, hukumatning maxsus qarori mavjud bo‘lgandagina ruxsat etilishi ta‘kidlanadi. 1927 yil O‘z SSR MIK III sessiyasida “Eski usul maktablarini tugatish to‘g‘risida” gi masala ko‘tariladi⁴. Mazkur sessiyada O‘zbekiston SSR Maorif xalq

komissari Mannon Ramziy (1931 yilda vazifasidan ozod qilingan) ma'ruza qiladi. U o'z ma'ruzasida eski usul maktablari va ularning faoliyati haqida to'xtalib shunday deydi: "Sobiq Turkistonning oktyabr to'ntarishigacha asosiy okruglarida - Farg'ona, Samarqand va Toshkentda 5833 diniy maktab bor edi. Agar bularga Buxoro va Xorazmni qo'shsak, unda hozirgi O'zbekiston hududida to'ntarishga qadar 6505 diniy maktab bo'lib, bu maktablarda o'quvchilar soni 104000 dan ortiqni tashkil

etardi. Burjuaziya, xususiy mulkdorlar va amaldorlar, mehnatkashlar ommasi o'z farzandlarini eski usul maktablari, qorixona, madrasalarda o'qitishga majbur edi. Oktyabr to'ntarishidan so'ng biz sovet maktablarini zudlik bilan tashkil qila boshlaganimizda va ularning rivojlangani sari eski usul maktablarining soni kamayib bordi. Mahalliy aholining vaqflar ta'minotidagi barcha maktablari, shundayligicha vaqflar hisobi holatida qolavergan. Madrasa va vaqflar

boshqaruvini tashkil etishda bir qadar jihatlar e'tiborga olindi. Madrasa va vaqflar boshqaruvini tartibga keltirish oktyabr voqealarigacha o'ringa ega bo'lgan, madrasalardagi tushunmovchilik va tartibsizliklarni oldini olish, madrasalar boshqaruvida saylash va saylanish hamda hay'at qaroriga asoslanadigan shakl joriy etish amalga oshirildi:

Madrasa va vaqflarni boshqarish uchun har bir uezd tarkibiga 5 ta saylangan shaxs va 1tadan tayinlangan yo'riqchi kiritilib, jami 6 kishilik hay'at tashkil etildi. Hay'at tarkibi 2 mudarris, 1 xalq sudyasi (qozi) va xalq maorifi bo'limi mudiri, xalq o'qituvchisidan iborat tartibda tuzilgan. Bunday hay'atlar Qo'qon, Andijon, Namangan, Eski Marg'ilon, Samarqand,

Xo'jandda tashkil etilgan va faoliyat ko'rsatgan. Hay'at tarkibiga kiritilgan diniy ulamolar, xalq sudyalari va musulmon maktablari o'qituvchilari uezd umumiy yig'ilishida saylanib, MIK tomonidan vazifalarga tayinlangan. madrasalar soni 40 tadan kam bo'lgan viloyatlarda, bir necha uezd hay'ati o'rniga yagona o'sha tarkibda viloyat hay'ati belgilangan. Toshkentda

Sirdaryo viloyati hay'ati tuzilgan. Madrasalar soni 20 tadan oshmagan uezdlarda hay'at tarkibi mudarris, xalq sudyasi (qozi) va xalq o'qituvchisi, bir tayinlangan yo'riqchidan iborat bo'lgan. Bunday tarkibdagi hay'atlar O'sh, Kattaqo'rg'on, Jizzax shaharlarida ham mavjud bo'lgan.

Statistik ma'lumotlarga qaraganda, Turkiston Respublikasining uch viloyatida (Sirdaryo, Farg'ona, Samarqand) eski usul madrasalari 300 ta bo'lishi kerak edi, ammo Vaqf bo'limlarining faoliyat boshlaganiga oz fursat bo'lganligi sababli ularning aksariyat qismi hisobga olinmagan. 1923 yil boshlarida Turkiston (Sirdaryo, Farg'ona, Samarqand) da 220

ga yaqin madrasalar mavjud bo'lib, ularning har birida o'rtacha 10-15 o'quvchi tahsil olgan.

1923 yildan Turkistondagi barcha eski maktablar qatori madrasalarning ham isloh qilinishi boshlangan. Buning uchun dastur ishlab chiqilgan. U “Diniy maktablarni (maktab va madrasalarni) qayta tashkil etishning qisqa loyihasi va shu maktablarning 1923-1924 o‘quv yili uchun dasturi” deb nomlangan. Uning ikkinchi bo‘limi “Madrasalar islohoti” deb

nomlangan. Ushbu dastur asosida 1923 yil 1 sentyabrdan Turkiston ASSR dagi madrasalar isloh qilingan¹. Uning natijalari 3.1-jadvalda aks ettirilgan.

Turkiston ASSR da isloh qilingan madrasalar va ularning soni (1923 .1. IX).

Nomi	X isobga	Ularda n qayta	Talabalar soni	Amalda uqiydi
Sirdaryo viloyati	2	6	375	193
Samarqand viloyati	5	7	410	360
Fargona viloyati	1	8	520	370
Jami	1	21	1305	873

Ta’kidlash joizki, bu jadvaldagi raqamlar real holatni aks ettirmaydi. Turkistondagi madrasalar soni esa bundan ham ortiqroq bo‘lganligi haqiqatga yaqinroqdir. Bosh vaqf boshqarmasi madrasalar islohotlariga juda hushyorlik va ehtiyotkorlik bilan yondashishni asosiy maqsad qilib belgilagan. Ayniqsa, Samarqand, Qo‘qon hududlarida islohotlarning ehtiyotkorlik bilan olib borilishi ko‘zda tutilgan va uning tadrijiy islohot bosqichlari aniq

belgilab berilgan².

Madrasalarni to‘qqiz yillik ta’lim tizimiga moslashtirish uchun o‘qish muddatini 20 yildan 9 yilga kamaytirish, ta’lim tizimini 3 yildan uch bosqichga taqsimlash, birinchi bosqichni sovet maktabining 5 yillik ta’lim tizimiga moslashtirish, ikkinchi bosqichni yetti yillikka moslashtirish, uchinchi bosqichni to‘qqiz yillikka moslashtirish masalasi

ishlab chiqilgan.

Birinchi bosqichga 20 yoshdan katta bo‘lmagan ravon o‘qish va yozishni biladigan shaxslar qabul qilingan. Ta’limning birinchi yilida sovet maktabining birinchi va ikkinchi o‘quv yilini to‘la kursi o‘tib bo‘lganligi va qisman uchinchi yil kursi ham qo‘shib o‘qitilgani, qolgan ikki yil davomida esa besh yillik ta’lim tizimining qolgan kurslarini

o‘zlashtirilishi ko‘zda tutilgan.

Ikkinchi bosqich yetti yillik maktab tizimi hajmida bilim berish

barobarida bo‘lgan. 5 yillik kurs bilimlariga ega bo‘lgan, yoshi 25 dan oshmaganlar madrasaga qabul qilingan.

Uchinchi bosqichda to‘qqiz yillik to‘la kursni o‘zlashtirgan bo‘lishi va bu bosqichga 30 yoshdan oshmagan va yetti yillik to‘la kurslar bilimni egallagan nomzodlar qabul qilingan. Yuqoridagi uch bosqichlar faqat, o‘qituvchi va o‘quvchilarning yetarli darajada tayyorgarliklari mavjud bo‘lgan taqdirdagina ochilgan.

Madrasalardagi har bir ta‘lim bosqichida, sovet maktabi o‘quv kurslarini o‘zlashtirishdan tashqari, arab va fors tillarida dars berishni yangi usullarini qat‘iy o‘zlashtirish talab qilingan.

Har bir bosqichning o‘quv kurslarining bu qadar cho‘zilib ketganini o‘qish vaqtining uchdan bir qismi yuqorida keltirilgan tillarni hamda diniy-huquqiy fanlarni: “Fikh” (Musulmon huquqi), “Tafsir” (Qur‘on tarjimai va tahlili) va “Hadis” (Muhammad Payg‘ambarning sunnatlari) ni o‘rganishga ajratilgani bilan izohlash mumkin. Namlari aytilgan fanlarni o‘qitish usullari va yo‘nalishi imkon qadar davr qoidalari talablariga javob berishiga qaratilgan. Farg‘ona va Samarqand viloyatlaridagi barcha madrasalarning 40 foizini 1923-1924 o‘quv yilida qayta qurish ko‘zlangan, lekin bu qayta qurishlar, madrasa va maktablarning binolari zamonaviy maktab tusida ta‘mirlash ishlari tugallanmaganligi oqibatida to‘xtab qolgan.

Bosh vaqf boshqarmasi tomonidan Toshkent shahar vaqf bo‘limi tomonidan 5 ta madrasa, 6 ta maktab yangi usul dasturiga o‘tkazildi. Samarqand shahar vaqf bo‘limida 440 o‘quvchisi bo‘lgan 14 ta maktab, Xo‘jand shahar vaqf bo‘limida 1280 nafar o‘quvchisi bo‘lgan 32 ta maktab, Kattaqo‘rg‘on vaqf bo‘limida 110 o‘quvchisi bo‘lgan 3 ta maktab mavjud bo‘lgan. Jami 2580 tinglovchiga ega bo‘lgan 60 yangi usul maktablari ro‘yxatga olingan.

Turkiston ASSR da madrasalarning soni (1923.30.XII)

№	BVB bulimlari	Madrasalar soni	Talabalar soni	Mudarrislar
1	Toshkent shahar	18	250	31
2	Qo‘kon bulimi	28	100	18
3	Margilon bulimi	33	100	10
4	Namangan bulimi	32	195	17
5	Andijon bulimi	36	100	14
6	Samarkand	19		14
7	Xujand bulimi	46	100	10
	Jami	212	845	114

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. ЎзР МДА, Р.34-фонд, 1-рўйхат, 1758-иш, 89-варақ.
2. Адхамов О. Дин ҳам шўролар ҳукумати.-Самарқанд-Тошкент: Ўздавнашр, 1929.-Б.39.
3. Сербов П.И, Никофоров А.Д. Ўзбекистонда халқ маорифи.-Самарқанд-Тошкент: Ўздавнашр, 1927. -Б.22.
4. Акрамов И. XIX аср охири XX аср бошларида Самарқанд вилояти мадрасалари // Ўзбекистонда ижтимоий
5. фанлар.-Тошкент, 1994.-№ 3-4.-Б.54-58
6. Солижонова Г. Ўрта асрларда Ўрта Осиё мадрасалари ўқув дастури
7. ҳақида // О'збекистон тарихи.-Тошкент, 2000.-№ 3.-Б.24-35;
8. Сулаймонов А. Олий таълим тарихига доир
9. лавҳалар // Халқ таълими.-Тошкент, 2005.-№.2.-Б.41-42;
- 10.Султонов Ў. XIX асрда Тошкент мадрасаларининг
- 11.ҳолати // О'збекистон тарихи.-Тошкент, 2005.-№ 3.-Б.64-72;